

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

VALIYEVA NOIBA ABBOSXANOVNA

XITOIY TILIDA “BAXT” KONSEPTINING FRAZEOLGIK
BIRLIK LARDA IFODALANISHI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

УО‘К: 811.581:81’3
КБК: 81.2-3 (5 Кит)
М-92

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation on doctor of philosophy
(PhD) on philological sciences**

Valiyeva Noiba Abbosxanovna

Xitoy tilida “baxt” konseptining frazeologik birliklarda ifodalanishi..... 3

Валиева Ноиба Аббосхановна

Выражение концепта “счастье” в китайских фразеологизмах 25

Valieva Noiba Abbaskhanovna

Expression of the concept of “happiness” in Chinese phraseological units ... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

VALIYEVA NOIBA ABBOSXANOVNA

XITOIY TILIDA “BAXT” KONSEPTINING FRAZEOLGIK
BIRLIK LARDA IFODALANISHI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil.1779 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tsuos.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nasirova Saodat Abdullayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Alimova Xolida Zikrillayevna
filologiya fanlari doktori, professor

Imomiddinova Nargiza Abduvaxidovna
filologiya fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «__» _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent, Mirobod tumani, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy. Tel.: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «____» _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil «__» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M.Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
filol.f.d., professor

R.A.Alimuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filol.f.d., dotsent

X.Z.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichida muayyan xalqning milliy-madaniy, tarixiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, hayotiy tajribasining yorqin in'ikosi bo'lgan frazeologik birliklarni lingvistik jihatdan tadqiq qilish, ularni til va inson, til va ong, lisoniy faoliyat mexanizmi, til egasi bo'lgan shaxsning lisoniy ongi, ruhiyati, madaniyati, nutqiy vaziyat, ijtimoiy muhit kabi omillar bilan bog'liqlikda o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. So'nggi yillarda kognitiv tilshunoslik asosi bo'lgan konsept, freym tushunchalari, xalqning olam lisoniy manzarasi bilan bog'liq ishlarda turli yondashuvlar kuzatilmoqda¹.

Dunyo tilshunosligida kognitiv nuqtayi nazardan turli tillarda *baxt* konseptining paremiyalarda, badiiy matnlarda verballashuvi borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xitoy tilshunosligida “五福 [wǔfú] *baxt*” konsepti maqol, matallar miqyosida lingvistik, falsafiy, lingvomadaniy, yondashuv asosida o'rganilgan². Shuningdek, mazkur konseptning qadimgi Xitoy bezaklari san'ati va me'morchiligidagi o'ziga xos xususiyatlariga oid ma'lumotlar ham tahlil etilgan³. Ta'kidlab o'tish kerakki, qiyosiy, chog'ishtirma tilshunoslik yo'nalishlarida ham *baxt* konsepti yuzasidan tahlillar mavjud⁴. Millatning madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy hayotidagi barcha jabhalarda namoyon bo'luvchi, xalqning dunyoqarashini ifodalovchi *baxt* tushunchasi frazeologik birliklarda aniq namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklar xalqning kumulyativ tajribasini o'zida aks ettirgani, uning urf-odati, madaniyati, olam lisoniy manzarasini o'rganishdagi asosiy manbalardan biri bo'lgani sababli mazkur mavzu doirasida turli tillarda lingvomadaniy, qiyosiy, chog'ishtirma yo'nalishidagi ilmiy ishlar olib borilgan. Shu ma'noda *baxt* tushunchasini frazeologik birliklar misolida tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda O'zbekistonda sharq tillarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan, xitoy tilining leksik-morfologik, sintaktik, kognitiv, lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish masalalari ham kun tartibidan o'rin olgan⁵. 2023-yil 18-mayda O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning davlat tashrifi bilan Xitoy Xalq Respublikasida bo'lgani O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi keng qamrovli siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-madaniy aloqalarning rivojlanib borayotganligini dalildir. Mazkur tashrif doirasida gumanitar soha muhokama qilinar ekan, ta'lim va turizm hamkorlikni faollashtirish, o'zaro madaniyat, san'at va kino kunlarini o'tkazish, an'anaviy tibbiyot bo'yicha dasturlarni amalga oshirish zarurligi haqida yakdil fikr bildirildi. Ta'lim va turizm hamkorlikni faollashtirish xitoy tilini o'rganishdagi barcha yo'nalishlarini qamrab olib, ikki xalqning bir-birini yaxshi tushunishiga, do'stona

¹ Глозман Б.Г. Лингвокультурный аспект изучения фразеологических единиц, репрезентующих концепт дом в русском языке: дисс...канд. филол. наук. – Орск. 2010. – С 239.

² Ан С.А., Ворсина О.А., Песчанская Е. В. Многозначность понятия «счастье» в китайской философии культуры // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2012/4 (32). – С. 66– 70.

³ Мартынова Н.В. К вопросу изучения феномена благожелательных изображений в традиционном искусстве Китая // The scientific heritage No 42 2019.– С 3-7.; 王庆峰. 中国吉祥图说 –北京, 1990. – 331 页; Кравцова М.Е. У фу (Пять [условий/проявлений/видов] счастья). Духовная культура Китая: энциклопедия: в 6 т. Т.2. Мифология. Религия. Ред.М.Л. Титаренко и др. – М. 2007. – С. 631-632.

⁴ Изотова Н.Н. Свообразие концепта «счастье» в японской лингвокультуре: дисс...канд. филол. наук. – М., 2012. – С. 154.

⁵ Насирова С. А. Ҳозирги хитой тили ижтимоий-сиёсий терминологияси: филол.фан.докт. (DSc) ... дисс. – Т., 2020. – 240 б.; Мавлянова У. Х. Хитой тилида сонларнинг семантикаси: лингвомаданий таҳлил: филол.фан.номз. ... дисс. – Т., 2020. – 155 б.

munosabatlarning yanada chuqurlashiga xizmat qiladi. Bu esa xitoy tili madaniyatini chuqurroq tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Bugunga qadar o'zbek xitoyshunosligida hozirgi xitoy tili bo'yicha muayyan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da⁶, ayni tildagi "baxt" konseptining xitoy lisoniy manzarasida tutgan o'rni, xitoy tilidagi frazeologik birliklarning milliy mental ongidagi talqini, frazeologik birliklarni lingvokognitiv xususiyatlari maxsus monografik planda tadqiq etilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son Qarordagi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yilning 10-fevraldagi 75-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish markazi faoliyatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xitoy tilida 黄全信 (Huáng Quánxìn), 李立 (Lǐ lì), 郁福敏 (Yù Fúmǐn), 郭珊莲 (Guō Shānlián), 蒋磊 (Jiǎng lěi), 兰 珊 (Lán Shān) 7 "五福 [wǔfú] baxt" tushunchasining etimologik, 陈光磊 (Chén Guānglěi),

⁶ Каримов А.А. Хитой тилидаги ҳисоб сўзлар: лексик-семантик, структурал ва функционал таҳлил. – Т., 2003. – 119 б.; Насирова С.А. Ҳозирги хитой тили дипломатик терминларининг лексик-семантик ва структур таҳлили: филол. фан. номз... дисс. – Т., 2008. – 160 б.; Хашимова С.А. Ҳозирги хитой тилида редупликация: филол. фан. номз... дисс. – Т., 2009. – 154 б.; Хашимова С.А. Ҳозирги хитой тилида редупликация, аффиксация ва конверсия: филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Т., 2020. – 240 б.; Мустафаева С.Т. Хитой тили тилшунослик терминлари тизимининг шаклланиши ва таракқиёти. – Т., 2016. – 196 б.

⁷ 黄全信, 中华五福吉祥图典, 福, 华语教学出版社, –北京 2003., – С.245.; 近年来关于幸福感研究的文献综述 李立 中南民族大学民族学与社会学学院, 武汉-2013.; 郁福敏、郭珊莲, 英汉习语对比, 上海交通大学出版社, 1999年; 蒋磊, 英汉习语的文化观照与对比, 武汉大学出版社, 2000年; 陈光磊, 中国惯用语, 上海文艺出版社, 上海, 1991年, – 123页.; 马国凡, 谚语·歇后语·惯用语, 辽宁人民出版社, 沈阳, 1961年, – 230页.; 徐宗才、应俊玲, 惯用语例释, 北京语言学院出版社, 北京, 1985年.; 赵忠宝, 中华谚语, 中国经济出版社, 2013年. Лань, Сяньлинь. Искусство благопожеланий Китая. Карьера / Сяньлинь Лань. – Цзянси: Искусство, 2004. – 155 б.

马国凡 (Mǎ Guófán), 徐宗才 (Xú Zōngcái), 赵忠宝 (Zhào Zhōngbǎo) lar esa mazkur tildagi maqol, matallarning semantik, struktur jihatlarini tahlil qilgan. Rus tilshunosligida “五福 [wǔfú] *baxt*” tushunchasi konsept sifatida falsafiy yondashuvlar asosida Li Syanxua, I.B.Smirnov, S.A.An, O.A.Vorsina, Y.V.Peschanskaya, N.N.Izotova, S.G.Vorkachev⁸, Sung Vivien, Joseph Needham, Roy David T. va T.H. Tsien, James Legge⁹ kabi olimlar tomonidan oʻrganilgan. 2000-yildan keyin mazkur sohada qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Tan Aoshuanning¹⁰ ilmiy izlanishlarida xitoyliklar lisoniy manzarasi, paremiyalar orqali milliy ongida shakllangan oʻziga xosliklar yoritilgan.

李立 (Lǐ Lì)¹¹ ilmiy ishi doirasida maktabdagi boshlangʻich va bitiruvchi sinf oʻquvchilarining baxtga boʻlgan munosabati, ayni paytdagi baxtni qay darajada his qilayotgani sotsiolingvistik jihatdan tadqiq qilingan. Li Syanxua, I.B.Smirnovlarning¹² tadqiqotida 福[fú] *baxt*, 禄[lù] *martaba (карьер)*, 寿[shòu] *uzoq umr koʻrish*, 喜[xǐ] *quvonch* va 财[cái] *boylik* kabi beshta komponentlar “五福 [wǔfú]” *toʻliq baxt* sifatida berilgan boʻlib, unga nisbatan qadimgi falsafiy asarlarda qanday taʼrif, yondashuvlar keltirilgani koʻrsatib oʻtilgan. Ishning xulosasida yuqorida keltirilgan beshta komponent boʻyicha qadimgi davr faylasuflari tomonidan bildirilgan fikrlar hamda zamonaviy Xitoydagi yondashuvlarning oʻzgarishi, nega aynan mazkur iyerogliflardan tashkil topgan “五福[wǔfú] *baxt*” konseptining dolzarb ekani ochib berilgan. Shu bilan birga, 无为[wúwéi] (Daosizmning harakatsizlik taʼlimoti: “noharakat”; soʻzma-soʻz “hech qanday harakat”) tushunchasi “koinotning tabiiy yoʻnalishiga toʻgʻri kelmaydigan hech qanday harakat qilmaslik”ni anglatadi. Undan tashqari, 吉祥[jíxiáng] *xayrli* va 福[fú] *baxt* iyerogliflarini etimologik talqini keltirib oʻtilgan. Li Syanxua, I.B.Smirnovlarning ilmiy ishida 福[fú] *baxt* iyeroglifining chap qismida odamlarning xudolar va ajdodlari bilan bogʻliqligi ramzi boʻlgan 丷[shì] *mehrob* kaliti saqlanib qolingani, iyeroglifning oʻng qismida idish oʻrniga 一[yī] *bir*, 口[kǒu] *ogʻiz* va 田[tián] *dala* tasviri aks etgani bayon etilgan. Yaʼni 口[kǒu] iyeroglifi insonga ishora qilsa, 田[tián] *dala* esa oziq-ovqatni anglatgan. Oziq-ovqat ming yil avval ham, hozirda ham inson uchun zarur boʻlgan eng asosiy neʼmat. Demak, baxt deganda qadimgi xitoyliklar Tangri va xudolarning homiyligini tushunganlar. Bu iyeroglifda aynan Tangri oʻrnatgan axloqiy prinsiplarga

⁸ Ли Цианьхуа, И.Б.Смирнов. Концепт «счастье» в китайских пословицах и поговорках // Вестник ЛГУ имени А.С. Пушкина. Серия Филология – СПб.: ЛГУ имени А.С. Пушкина, 2013. № 3.– С.175-185.; Ан С.А., Ворсина О.А., Песчанская Е. В. Многозначность понятия «счастье» в китайской философии культуры // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2012/4 (32). – С. 66-70; Изотова Н.Н. Своёобразие концепта «счастье» в японской лингвокультуре: дисс...канд. филол. наук. – М., 2012. – 154 б.; Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. – Краснодар: КТУ, 2002. – С.142.

⁹ Sung V. Five-fold happiness: Chinese concepts of luck, prosperity, longevity, happiness, and wealth. 9050 Shaughnessy Street, Canada: Raincoast Book. – Canada., 2002. – 154 p; Joseph Needham. Science in Traditional China: A Comparative Perspective. – Hong Kong: The Chinese University Press, 1981. – 267 p.; Roy D.T., Tsien T.H. Ancient China: Studies in Early Civilization. – Hong Kong: The Chinese University Press, 1978. – 267 p.; <https://confuciusinstitute.unl.edu/The/Documents.pdf>.

¹⁰ Тан Аошуан. Китайская картина мира. Язык, культура, ментальность. – М., 2012. – 155 б.

¹¹ 李立 近年来关于幸福感研究的文献综述 中南民族大学民族学与社会学学院, 武汉–2013.

¹² Ли Цианьхуа, И.Б.Смирнов. Концепт «счастье» в китайских пословицах и поговорках // Вестник ЛГУ имени А.С. Пушкина. Серия Филология – СПб.: ЛГУ имени А.С. Пушкина, 2013. № 3. – С.175-185;

rioya etib, ham mabudlarni, ham ajdodlarni e'zozlab yashagan odam hayot uchun lozim bo'lgan uy-joy va oziq-ovqatlarning barchasini oladi, degan falsafiy yondashuv keltirilgan. Mualliflar ta'kidlaganidek 吉祥[jíxiáng] *xayrli* iyeroglifi birinchi bo'lib qadimgi Xitoy klassik daosistlar manbasi bo'lgan "Djuangzi" risolasida (miloddan avvalgi 300-yillar) tilga olingan bo'lib, "farovonlik", "taqdirning marhamati" ma'nolarini ifodalaydi.

S.A.An, O.A.Vorsina, Y.V.Peschanskayalar¹³ "五福[wǔfú]" baxtni quyidagi beshta qismga ajratib tahlil qilgan: 长寿[chángshòu] *uzoq umr*, 财富[cáifù] *boylik*, 美德[měidé] *go'zal xulq*, 健康[jiànkāng] *sog'liq*, 自然死亡[zìrán sǐwáng] *tabiiy o'lim* (qariganda vafot etish). Maqol va matallar asosida mazkur besh komponentning lingvomadaniy jihatdan o'ziga xosligi ko'rsatilgan. Tahlil jarayonida misollar orqali yana qo'shimcha ma'nolar va mazkur iyerogliflarni ifodalovchi ramzlar haqida ham atroflicha ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbek tilshunosligida A.A.Abduazizov, Sh.S.Safarov, D.U.Ashurovalarning¹⁴ ilmiy izlanishlarida kognitiv lingvistikaga e'tibor qaratilgan. Konsept yoki "baxt" konsepti mavzusiga aloqador ishlardan quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: T.K.Mardiyev¹⁵ tomonidan o'zbek va ingliz tili qiyosida baxt konseptining lingvomadaniy, semantik tadqiqi amalga oshirilgan. O'xshash va farqli jihatlari, kategoriya va konseptualizatsiya jarayonida har bir til o'z xalqining madaniyatini qamrab olishi tahlil qilingan, shu bilan birga, baxt konsepti ikki til doirasida komponentlarga ajratilgan. D.B. Agzamova¹⁶ tomonidan xotira konsepti o'zbek va ingliz tillari doirasida qiyosiy tahlil qilingan, mushtarak o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan, "xotira" konsepti struktur jihatdan yadro va periferiyaga taqsimlanib, qo'shimcha ma'nolari ham tahlilga tortilgan.

M.R.Galiyevaning tadqiqotida¹⁷ kognitiv modellashtirish asosida "so'z" konseptosferasining modeli tuzilgan, aynan so'z konseptining tahlili tilning barcha bilim tuzilmalari verbalizatsiyasi amalga oshadigan sathda olib borilgan. M.M.Rahmatova ning¹⁸ ishida "go'zallik" konseptining ingliz, o'zbek va tojik tillaridagi verballashuvi, Qur'oni Karim va Injil matnlaridagi in'ikosi o'rganilgan. Lingvomadaniy yondashuvda ingliz, o'zbek va tojik tillari qiyoslanib, "go'zallik" konseptining umumiy, farqli jihatlari va o'ziga xosligi yoritilgan.

Ma'lumki, so'nggi chorak asr mobaynida chet elliklarga xitoy tilini o'qitish dunyoda, shu jumladan, Xitoyning o'zida ham keng quloqch yoydi. Shu bilan birga

¹³ Ан С.А., Ворсина О.А., Песчанская Е. Многозначность понятия «счастье» в китайской философии культуры// Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2012/4 (32). – С. 66-70.

¹⁴ Абдуазизов А.А. О составных частях когнитивной лингвистики// Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2007. – №3. – С. 34.; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 98 б.; Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики// Филология масалалари. – Тошкент, 2004. – №4. – С. 24- 48.

¹⁵ Mardiyev T.K. "Baxt" konseptining lingvomadaniy va semantik talqini (ingliz va o'zbek tillari qiyosida)//Xorijiy filologiya. № 4, Samarqand, 2016. – B.36-43.

¹⁶ Agzamova D.B. "Xotira" konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi umumiy o'ziga xos xususiyatlari: avtoref. diss... filol.f.n. – T., 2012. – B. 76.

¹⁷ Галиева М.Р. Вербализация концептосферы word/cўз/слово в английской, узбекской и русской языковых картинах мира: дисс. ... кандидата филологических наук. –Ташкент, 2010. – В.85.

¹⁸ Rahmatova M.M. Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida "go'zallik" konseptining lisoniy xususiyatlari. – T., 2019. – B.81.

kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan til va ong, inson va uning ruhiyati, jamiyatning sotsium lisoniy manzarasiga ta'sirini o'rganish ham so'nggi o'n yillarda tilshunoslikda yangi yo'nalish sifatida tendensiyaga aylandi. Xalqning kumulyativ tajribalarini o'zida aks ettiruvchi frazeologik birliklarga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilishga oid ishlarga ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Hozirgi kunga qadar xitoy tilidagi “五福 [wǔfú] *baxt*” modelining farzeologik birliklar doirasidagi zamonaviy ko'rinishi anketa so'rovnomasi orqali sotsiolingvistik jihatdan o'rganilmagan. Zamonaviy xitoy tilshunosligida Xitoy jamiyatida “baxt” tushunchasini idrok etish modeli maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan, bu esa tadqiqot ishi dolzarbligining yana bir asosidir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Xorijiy Sharq mamlakatlari tillarini o'rganish va tilshunoslikning nazariy masalalari” mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi leksikografik manba asosida frazeologik birliklar misolida an'anaviy “五福 [wǔfú] *baxt*” modelining xitoyliklar milliy lisoniy ongidagi o'zgarishlar ta'sirida shakllangan zamonaviy modelini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

konsept, model, frazeologik birlik tushunchalariga nisbatan xorijiy va o'zbek tilshunosligidagi yondashuvlarni tadqiq etish;

zamonaviy tilshunoslikda xitoy tilidagi *baxt* tushunchasi, ya'ni “五福 [wǔfú] *baxt*” borasidagi tadqiqot tahlilini amalga oshirish;

“五福 [wǔfú] *baxt*” modelini tashkil etuvchi komponentlar semantikasini o'rganish orqali “五福 [wǔfú] *baxt*” modelining tadrijiy rivojini ochib berish;

leksikografik manbadagi va “baxt” ma'nosini ifoda etgan 250 ta frazeologik birlik asosida “五福 [wǔfú] *baxt*” modelining komponentli va komponentsiz turlarini aniqlash;

manba asosida “五福 [wǔfú] *baxt*” modeli komponentlari ifodalanmagan frazeologik birliklarni nishon makon (target domain) va asos makon (source domain) yordamida guruhlarga bo'lib tahlil qilish;

xitoy tilidagi *baxt* modelini so'rovnoma asosida sotsiolingvistik tadqiq qilish natijasida xitoyliklarning milliy lisoniy ongidagi zamonaviy *baxt* modelini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida 2004-yilda 黄全信(Huáng Quánxìn ning) “中华五福吉祥图典”¹⁹ (Xitoy besh ne'mat aforizmlar lug'ati) xitoy tilida nashr etilgan besh jildlik asari hamda leksikografik manbalarda aks etgan “五福 [wǔfú] *baxt*” konsepti²⁰ tanlangan.

Tadqiqotning predmetini xitoy tilidagi “baxt” konseptli frazeologik birliklarning semantik va lingvokognitiv xususiyatlarini tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot uchun to'plangan materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib, semantik, tavsifiy, komponent tahlil usullariga

¹⁹ 黄全信, 中华五福吉祥图典, 福, 华语教学出版社, -北京 2003. -245 页.

²⁰ http://chengyu.t086.com/c_b4f4

murojaat etildi. Shuningdek, sohalararo usullar, ya'ni metaforalarni kognitiv interpretatsiyalash usuli, sotsiolingvistik (so'rovnoma) tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Xitoy tilida “五福 [wǔfú] baxt” tushunchasi aniq bir strukturaga ega bo'lib, komponentlar miqdori o'zgarishligi va aynan shu sabab model ekanligi dalillangan;

tarkibida “五福 [wǔfú] baxt” modeli komponentlari bevosita aks etmagan frazeologik birliklarda mazkur model komponentlariga ishora qiluvchi fitonimlar, zoonimlar va mifologik obrazlar borligi aniqlangan;

黄全信(Huáng Quánxìn)ning 《中华五福吉祥图典》 (Xitoy besh ne'mat aforizmlar lug'ati) besh jildlik leksikografik manbada baxt tushunchasini aks ettirgan 250 ta misolning 6 foizi “五福 [wǔfú] baxt” modeli komponentlari ishtirok etgan iboralar orqali ifodalanishi sotsiolingvistik formula ($f=n(f): m$) yordamida asoslangan;

jamiyat, turmush tarzi, iqtisod, siyosat o'zgarishi ta'siri ostida zamonaviy “五福 [wǔfú] baxt” modeli komponentlar tarkibi hamda tartibi o'zgarishga yuz tutgani 100ta respondent ishtirokidagi so'rovnoma asosida dalillanib, hozirgi XXR jamiyati ongida yosh, jins, ijtimoiy kelib chiqish omillari vositasida an'anaviy baxt tushunchasi bilan parallel ravishda 12 xil yangi model shakllanganligi isbotlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xitoy tilidagi frazeologik birliklarning semantikasi, lingvomadaniy xususiyatlarini sotsiolingvistik yondashuvdan kelib chiqib tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan anketa so'rovnomasi boshqa tillardagi tadqiqotlar uchun amaliy yordam berishi, iboralarni tadqiq etish zamonaviy xitoy tili va millati lisoniy ongi, tafakkurini o'rganishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

“五福 [wǔfú] baxt” modeliga oid frazeologik birliklarning ma'no ko'lami hamda ularning komponentli va komponentsiz ko'rinishlari muayyan manba asosida misollarni tahlil qilishda foydalanish mumkinligi asoslangan;

frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari madaniyatlararo muloqot jarayonida foydalanilishi hamda xitoy millatining kumulyativ tajribalarini ifodalovchi frazeologik birliklarga zamonaviy yondashuvini aniqlashda ishonchli manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilishi, chiqarilgan xulosalarning ishonchliligi, ishda foydalanilgan manbalar asosida fundamental ilmiy va maxsus adabiyotlarga tayanilgan holda tanlangan tadqiqot usullari va nazariy ma'lumotlarning asosiligi, keltirilgan tahlil, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, ilmiy tadqiqot natijalarining dissertatsiya nazariy konsepsiyasiga mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalar hozirgi kunda xitoy tilshunosligida dolzarb hisoblangan frazeologik birliklar tasnifi, ularni farqlash mezonlari, xitoy tilshunosligida millatning urf-odatlarini, kumulyativ tajribalarini o'z ichiga olgan frazeologik birliklarga zamonaviy yondashuv va sotsiolingvistik jihatdan

modellashuv masalalarini yanada chuqurroq o'rganish uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosa va materiallaridan "Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili)" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Umumiy tilshunoslik", "Lingvomadaniyatshunoslik", "Sotsiolingvistika", "Kognitiv tilshunoslik", "Sinxron tarjima" kabi o'quv fanlaridan yangi o'quv adabiyotlari: darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, xitoy tilini o'qitish jarayonida, soha lug'atlarini tuzishda, frazeologik birliklarning tarjima variantlarini aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xitoy tilida "baxt" konseptining frazeologik birliklarda ifodalanishi yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

frazemalarni to'g'ri tarjima qilish va etkazish, qolaversa, xitoyliklarning baxt konseptiga bo'lgan yondashuvini to'g'ri tushuntirish, frazeologik birliklarning madaniyatlararo muloqot jarayonidagi o'rni hamda zamonaviy xitoy millatining xalq kumulyativ tajribalarini ifodalovchi frazeologik birliklarga zamonaviy yondashuvi kabi masalalar bilan bog'liq tadqiqot natijalari 2021-yil 23-dekabrda O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi tomonidan tashkil etilgan "O'zbek zamonaviy adabiyotini xorijiy tillarga tarjima qilish va chet mamlakatlarda targ'ib qilishning dolzarb masalalari"ga bag'ishlangan ikkinchi respublika konferensiyasi va mahorat saboqlarida foydalanilgan (O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi 2021-yil 28-dekabrda 01-03/1653-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarda xitoy tilini o'zlashtirishda "xitoy tili+sotsiolingvistika" modeli asosida zamonaviy xitoyliklar lisoniy ongidagi "五福 [wǔfú] baxt" tushunchasi haqida aniq tassurotlar shakllantirildi, baxt konsepti bilan bog'liq frazeologik birliklarning komponentlariga ishora qiluvchi fitonimlar, zoonimlar va mifologik obrazlarning to'g'ri talqin qilish ko'nikmasi shakllantirilgan;

Xitoy tili frazeologik birliklarini tarjima qilish, lakunalar, "baxt" konseptini ifodalovchi 5 xil hierogliflar haqida, ularni tarjimada to'g'ri aks ettirish usullariga bag'ishlangan tahliliy fikrlar va nazariy xulosalar, materiallardan 2021-yil 23-dekabrda O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi tomonidan tashkil etilgan "O'zbek zamonaviy adabiyotini xorijiy tillarga tarjima qilish va chet mamlakatlarda targ'ib qilishning dolzarb masalalari"ga bag'ishlangan ikkinchi respublika konferensiyasi va mahorat saboqlarida foydalanilgan (O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi 2021-yil 28-dekabrda 01-03/1653-son ma'lumotnomasi). Natijada zamonaviy xitoy adabiyoti asarlarida baxt konsepti bilan bog'liq frazeologik birliklarining o'zbek tilidagi tarjimasida muqobil shakllari tavsiya etildi;

tushuncha, konsept va modelga bo'lgan qarash, xitoy tilidagi baxt, ya'ni "五福 [wǔfú] baxt"ni, frazeologik birliklarni o'rganishdagi yondashuvlar tahlili, baxtga doir frazeologik birliklarni "五福 [wǔfú] baxt" modeli komponentlari asosida guruhlariga ajratish, xitoy tilida baxt modelining so'rovnomasi asosidagi sotsiolingvistik tadqiqi va zamonaviy baxt modelining ko'rinishi borasidagi fikrlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali muharririyati tomonidan tayyorlangan "Jahon adabiyoti", "Ta'lim va taraqqiyot" radioeshittirishlari

ssenariylarini tayyorlashda manba sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasi 2023-yil 11-maydagi 04-36-731-son ma’lumotnomasi). Natijada xitoy tilidagi “五福 [wǔfú] baxt” modeli lisoniy tabiatini anglash, o‘ziga xos tendensiya va qonuniyatlarga oid ma’lumotlar efirga uzatilgan eshittirishlarning ilmiy dalillarga boy va ommabop bo‘lishini ta’minlagan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (3 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda) e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Xitoy tilida “五福[wǔfú] baxt” konseptining ilmiy-nazariy asoslari” deb nomlanib, mazkur bobda, avval, model tushunchasiga izoh keltirilib, uning konsept va tushunchadan farqli jihatlari, Xitoy lisoniy tafakkurida “baxt” haqidagi tasavvurlar ko‘rsatilgan. Shuningdek, xitoy tilidagi “五福[wǔfú] baxt” ni o‘rganishdagi yondashuvlar, uning tadrijiy rivoji va frazeologik birliklar doirasidagi tahlillar o‘rin olgan. Lingvistikada model²¹, asosan, mavhum va ideallashtirilgan bo‘ladi²². Undan tashqari, model konseptdan aniq strukturaga ega ekani bilan ajralib turadi²³. Buni J.Lakoff, E.S. Kubryakovalarning ishlarida ham kuzatish mumkin²⁴.

Xitoy tilidagi “五福[wǔfú] baxt” ham tushuncha, ham konsept sifatida S. A. An, O. A. Vorsina, Ye. V. Peschanskayalarning tadqiqotlarida falsafiy yondashuv asosida o‘rganilgan bo‘lsa, Li Sianxua, I. B. Smirnovlar maqol va matal doirasida

²¹ Model – (fran.modele, lot.modulus) “o‘lchov” ma’nosini anglatadi. Tilshunoslikda model sun’iy ravishda yaratilgan, soddalashtirilgan, takomillashtirilgan aqliy yoki haqiqiy qurilma.

²² Ярцева В. Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990, – С.304.

²³ Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики //Вопросы когнитивной лингвистики. – М., 2004. – С. 18-36.

²⁴ Lakoff G. Women, fire, and dangerous things. The university of Chicago press, 1987. – P. 275.; Краткий словарь когнитивных терминов. Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова. – М., 1997. – С 22;

lingvomadaniy tahlil qilganlar, V.Sung esa semiotik jihatidan tadqiq etgan²⁵. Mazkur ilmiy ishda xalqning kumulyativ tajribasini o‘zini aks ettiruvchi frazeologik birliklar misolida baxt modeli tahlili amalga oshirilgan. Shuni ta’kidlash joizki, hozirgi kunga qadar xitoyshunoslikda iboralar borasida turli qarashlar mavjud. “Zamonaviy Xitoy tili lug‘ati”da frazeologik birliklarga quyidagicha ta’rif beriladi: “Keng va uzoq vaqtdan beri qo‘llanadigan, chuqur ma’noga ega bo‘lgan so‘z birikmalari²⁶”. “Xitoy tilshunosligi lug‘ati”da esa shunday izohlangan: “Chuqur ma’noga ega, ixcham, keng qo‘llanadigan, tilda tayyor holda mavjud bo‘lgan lingvistik birlik²⁷”.

Shakli nuqtayi nazaridan, frazeologik birliklar deyarli to‘rt belgidan iborat konvensiyalar asosida tuzilgan bo‘lib, iyerogliflar o‘rmini almashtirish mumkin emas. Ta’kidlash joizki, “五福[wǔfú] baxt” uzoq tarixga borib taqalsa-da, komponentlar soni o‘zgarmagan. Ular beshta bo‘lib, komponentlar zamon o‘tishi bilan ma’noviy o‘zgarishlarga yuz tutgan bo‘lsa ham, son jihatdan saqlanib qolgan.

Xitoy tilida tabiat unsurlari bilan aloqador ekani, hamda besh tarafni ifodalagani sabab besh soniga bo‘lgan munosabat o‘ziga xosligini kuzatish mumkin. Xitoyliklarning dunyoga bo‘lgan munosabatida falsafiy jihatdan butun borliq, koinotni In va Yan kuchlari tashkil qiladi va ularni o‘zaro bog‘liqligi tufayli uyg‘unlik vujudga kelishi haqida qarashlar mavjud. Aynan In va Yan suratidan besh iyeroglifi shakli kelib chiqadi²⁸. Demak, dunyo yaralishi va uni ushlab turuvchi kuch, tabiatdagi o‘zaro mushtaraklikni anglatgani bois ham besh iyeroglifi xitoyliklar milliy ongida boshqa sonlardan yuqoriroq o‘rin egallaydi. Bundan tashqari quyidagi misollarda ham mazkur qarashni kuzatish mumkin: beshta asosiy rang (ko‘k, qizil, sariq, oq, qora), qadimgi Xitoy musiqasida ham besh ton mavjud.

Dastlab, “五福[wǔfú] baxt” tushunchasi qadim Xitoyning Chjou (mil.av.1046-256) sulolasi davridagi Shujing kitobida keltirilgan. “五福[wǔfú] baxt” xitoy tilida beshta ne’mat ma’nosini anglatib, Xitoy xalqining lisoniy tasvirida baxtni ifodalaydi. 書經²⁹ [shūjīng] dagi (Hujjatlar kitobi) 《書·洪范》[Hóng Fàn] bobiga nazar tashlasak: “五福：一曰壽，二曰富，三曰康寧，四曰攸好德，五曰考終命。” beshta ne’matning ma’nosi “uzoq umr” 壽 [shòu], “boylik” 富 [fù], “xotirijamlik va sog‘lik” 康寧[kāngníng], “ezgulikka bo‘lgan muhabbat” 攸好德[yōu hǎo dé] va “tinch o‘lim” 考終命[kǎozhōngmìng]³⁰ komponentlardan tashkil topgan.

²⁵ Ан С.А., Ворсина О. А., Песчанская Е. Многозначность понятия «счастье» в китайской философии культуры // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств, 2012. №4 (32). – С. 66-70.; Ли Цианьхуа. Концепт «счастье» в китайских пословицах и поговорках / Ли Цианьхуа, И. Б. Смирнов // Вестник Ленинградского государственного университета имени А.С. Пушкина. Серия Филология / гл. ред. В. Н. Скворцов. – СПб.: ЛГУ имени А.С. Пушкина, 2013, № 3. – С. 175-185.; Sung V. Five-fold happiness : Chinese concepts of luck, prosperity, longevity, happiness, and wealth. 9050 Shaughnessy Street, Canada: Raincoast Book. – Canada., 2002. – P. 154;

²⁶ 现代汉语词典. 北京: 商务印书馆, 2012, 1790 – 页.

²⁷ 中国语言学大辞典. 江西: 江西教育出版社, 1991. 1174 – 页

²⁸ Ан С.А., Ворсина О. А., Песчанская Е. Многозначность понятия «счастье» в китайской философии культуры / В. // Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2012/4 (32) – С. 66-70.

²⁹ “Shu jing”, “Tarix kitobi”, “Hujjatlar kitobi”, “An’analar kitobi” (Konfutsiying “besh kitoblik”ga kiritilgan kitoblardan biri); Xitoyning qadimgi (shu jumladan mifologik) tarixiga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, uning nashri Konfutsiyga tegishli; shuningdek, “Shanshu” nomi bilan ham tanilgan.

³⁰ Roy D. T., Tsien T. H. Ancient China: Studies in Early Civilization. – Hong Kong: The Chinese University Press, 1978. – P. 267.

壽[shòu] “uzoq umr” va 富[fù] “boylik” birlamchi, 康寧[kāngníng] “xotirijamlik va sog‘lik”, 攸好德[yōu hǎo dé] “ezgulikka bo‘lgan muhabbat” ya’ni inson fazilati, yaxshi xulqi nazarda tutilgan, 考終命[kǎozhōngmìng] “keksalikdagi tabiiy o‘lim”, umrining bu dunyo uchun ajratilgan davrini psixo-ijtimoiy qulaylik, taqdirni qabul qilish va xotirijamlik bilan yakunlash deb talqin qilinadi.

Biroq yillar davomida hukumat, jamiyat yangilanishi bilan “五福[wǔfú]” komponentlari ham o‘zgarib borgan va Xan sulolasi (mil.av. 206-220-yillar) davrining faylasufi 桓譚[Huántán] (mil.av. 43-28-yillar) tomonidan yozilgan 新論[Xīnlùn] “Yangi munozaralar” deb nomlanuvchi kitobiga ko‘ra, besh ne‘mat boshqa komponentlardan tashkil topgan. Bular: “boylik” 富[fù], “uzoq umr” 壽[shòu], “hukumatdagi farovonlik” 貴[guì], “xotirijamlikda yashash” (sihat-salomatlikni ham ifodalaydi) 安樂[ānlè] va “unumdorlik” (avlod qoldirish) 子孫眾多[zǐsūn zhòngduō]. 新論[Xīnlùn] ta’rifidagi “tug‘ish va unumdorlik” ma’nosi Shujindagi “uzoq umr” va “tinch o‘lim”ning asl ma’nosiga to‘g‘ri keladi. Biroq 貴[guì]ning ma’nosi Shujinda tilga olingan 攸好德[yōu hǎo dé] ma’noni emas, balki “davlat va jamiyatdagi o‘z ulushini taqsimlash vakolatini” bildiradi³¹. Mazkur modelda 壽[shòu] “uzoq umr” va 富[fù] “boylik” birlamchi, 貴[guì] “hukumatga itoat”, “farovonlik” komponenti Konfutsiylik 五倫[wǔlún] qarashlari sabab 安樂[ānlè] “farovonlikda”, “xotirijamlikda yashash” yuqoridagi “xotirijamlik va sog‘lik” komponenti bilan o‘xshash. 子孫眾多[zǐsūn zhòngduō] “unumdorlik” (avlod qoldirish) beshinchi komponent ikki misolda bir-birig zid. Jamiyatni tanatos³² qarashlardan erosga o‘zgarganini ko‘rish mumkin.

王树邨 - 福祿壽喜財 [Wáng Shùcūn] (Min sulolasi 1368-1644) mazkur modelda komponentlar tarkibi va iyerarxiyasi katta o‘zgarishga uchragan 福[fú] “baxt”, “farovonlik” birlamchi komponent, 祿[lù] “martaba” (ilm) bilimga bo‘lgan ehtiyoj, 壽[shòu] “uzoq umr” uchinchi komponentga aylangan, 喜[xǐ] “quvonch” (oila), 財[cái] “boylik” (savdo). Zamonaviy Xitoyda aynan mazkur model ommabop hisoblanib bayram tabriknomalari, devor suratlarida ko‘zga tashlanadi. Masalan, 五福临门[wǔfú línmén] iborasi xitoyliklar orasida, ayniqsa, Xitoy yangi yilida baraka, baxt tilash mazmunida ishlatiladi. Xitoyliklar har bir oila a’zosi 福[fú] baxtga (omad) erishishiga umid qiladilar. Ikkinchi iyeroglif 祿[lù] iyeroglifini o‘z oila a’zolariga ishlarida sharaf yoki mavqega ega bo‘lishlariga, shunda ular farovonlikka erishishlari mumkinligiga, 壽[shòu] esa uzoq umr ko‘rishga umidni ifodalaydi. 喜[xǐ] yosh yigit-qizlarga turmush qurishga yoki er-xotinlarga farzand ko‘rishga ishora qiladi. Xitoyliklar 財[cái] biznes, savdo yoki hosilni yig‘ib, ko‘p boylik orttirish imkonini beradi deb hisoblaydi³³. Mazkur modelda komponentlar tarkibi va iyerarxiyasi Chjou (mil.av.1046-256) sulolasi davridagi va Xan sulolasi (mil.av. 206-220-yillar)

³¹ Joseph Needham. Science in Traditional China: A Comparative Perspective. – Hong Kong: The Chinese University Press, 1981. – P.267.

³² <https://voluntary.ru/slovari/bolshoj-tolkovyi-sociologicheskij-slovar.html>.

³³ Sung V. Five-fold happiness: Chinese concepts of luck, prosperity, longevity, happiness, and wealth. 9050 Shaughnessy Street, Canada: Raincoast Book. – Canada, 2002. – P.54


davridagi modellar bilan solishtirganda, katta o'zgarishga uchraganini kuzatish mumkin. Yuqoridagi misoldan ham “五福 [wǔfú] baxt”ni ifodalashi va xitoyliklarning katta qismi orasida mashhur ekanini ko'rish mumkin. “五福[wǔfú] baxt” modeli bo'lib, uning komponentlari turg'un qolsa-da, biroq ma'nolari o'zgarib turadi. Aynan osmon ne'matlarini ifodalovchi frazeologik birliklar xitoyliklarning milliy mental ongida baxtga bo'lgan qarashlarini yaqqol namoyon etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi ““五福 [wǔfú] baxt” modelining frazeologik birliklarda ifodalanishi” deb nomlanib, baxtning model sifatida aniq ichki strukturaga ega ekani, xitoyliklar milliy lisoniy ongida baxtning ideal ko'rinishini aks etishi va har bir komponent baxt bilan bog'liq barcha tushunchalarni qamrab olishi frazeologik birliklar misolida tahlil qilingan. Shuningdek, “五福 [wǔfú] baxt”ning har komponentiga to'xtalib, lug'aviy ma'nolari bilan bir qatorda, qo'shimcha ma'nolari bayon etilgan. Shu bilan birga, komponentli va komponentsiz frazeologik birliklar ikkiga ajratilgan. “五福 [wǔfú] baxt” modeli komponentlari ishtirok etmagan frazeologik birliklar kontseptual metafora nazariyasiga asosan uch guruhga, ya'ni zoonimlar, fitonimlar va mifologik obrazlar guruhiga taqsimlanib o'rganilgan.

“五福[wǔfú] baxt” modelining 喜[xǐ] komponenti ishtirokida frazeologik birlik quyidagicha tahlil qilingan: 喜从天降[xǐ cóng tiān jiàng] kutilmagan quvonch (so'zma-so'z tarjimasida: quvonch osmondan tushdi). Qadimgi Xitoy adabiyoti sanalgan “尔雅·释虫·注” da kichik o'rgimchaklarni xalq tilida “xi zi- baxt urug'i” deb atashgani qayd etilgan. Tang sulolasi davrida o'rgimchaklar devorga chizilgan va ularni “devor pullari” deb nomlangan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra ustki kiyim-kechaklarga tushib qolsa yoki armiyada, uyni burchaklarida, qayerda to'plangan bo'lsa, bu quvonchli voqealar sodir bo'lishining belgisidir. O'rgimchakni ko'rish omad yo'lda ekanligiga ishora hisoblangan. Frazeologik birliklar tahlil shuni ko'rsatadiki, “baxt” nafaqat “omad”, “xotirjamlik”, “salomatlik”, “uyg'unlik” kabi ma'nolarini o'z ichiga oladi, balki “kutilmagan baxt” ni ham ifodalaydi. Demak, qayd etilgan iborani kategoriyalarga bo'lib chiqsak, zoonimlar ko'zga tashlanadi. Sababi aynan 降[jiàng] iyeroglifi o'rgimchakning tepadan o'rmalab tushishiga ishora. Xitoy xalqi boshqa millatlar kabi baxtni tabiat va uning belgilarida ko'radi. Zoonimlar metafora va o'xshatishlar shaklida namoyon bo'ladi. Demak, “baxt” tuyg'usini obrazli tavsifini shakllantirish maqsadida hayvonot olami, ularning timsolidan ko'chma ma'noda foydalanilgan. Asosan, Xitoy xalqi lisoniy manzarasida o'rgimchak kutilmagan quvonch bilan bog'liq ekanini 喜从天降 [xǐcóng tiānjiàng] frazeologik birlik tahlilida ko'rish mumkin. “五福[wǔfú] baxt” modelining 喜[xǐ] komponenti bevosita quvonchni, uning kutilmagan tarzda tepadan o'rmalab tushishini 降 [jiàng], ya'ni o'rgimchak zoonimi anglatgan.

“五福 [wǔfú] baxt” modeli komponentlari ishtirok etgan misollarning barchasida bevosita baxt modeli tarkibiga kiruvchi, uni bildiruvchi iyerogliflar mavjud. Bir qarashda ular baxt haqidagi tasavvurlarni ifodalayotganini anglash qiyin emas. Biroq ularning soni umumiy manbadan olingan misollar miqdoridan kam chiqdi. Quyida manbadan tanlab olingan 250 ta frazeologik birlik ichida “五福[wǔfú]

baxt” komponenti ishtirok etgan misollar ushbu formula $f=n(f): m$ asosida 6 foiz ekani ko‘rsatib berilgan.



unda “五福 [wǔfú] *baxt*” modeli komponentlari qatnashmagan frazeologik birliklar 94foizni tashkil etib, ular uch guruhga ajratilgan. Fitonimlarga quyidagi frazeologik birlikni misol qilib keltirish mumkin: 花好月圆[huā hǎo yuè yuán] go‘zal oila, baxtli oila (asosan, to‘y marosimlarida tabrik uchun ishlatiladi). Qadimiy nikoh hutbasida shunday deyilgan: “gullar ochilib, oy to‘lgan kecha, ikki yosh xonasi shamlarga to‘la”. To‘lin oy va gullar oila birlashuvini, baxtli oilani ifodalaydi. Afsonalarga binoan oila (nikoh) ma‘budi aynan to‘lin oy ostidagi qariya sifatida gavdalanadi. Nikoh ma‘budi to‘lin oy nurlari ostida ikki yoshning oyog‘iga qizil ip bog‘lab nikoh o‘qiydi. Bu esa ularning 100 yil birga yashashini bildiradi. Mazkur iboraning so‘zma-so‘z tarjimasini: “gullar ochilib, oy to‘lishganda”, ya‘ni gullar to‘liq ochilganda, oy to‘liq bo‘lganda go‘zallashadi va kuchga kiradi. Demak, inson ham juftini topganda to‘liq kuchga va chiroyga ega bo‘ladi. Bu yerda “五福 [wǔfú] *baxt*” modeli 喜 [xǐ] quvonch komponentining yana bir konnotativ ma‘nosi “baxtli oilani” ifodalagan. Ya‘ni fitomorf, o‘simliklar orqali gavdalantirilgan. Mazkur misolda “花” bilan “月” asos domen bo‘lib, nishon domen baxtga ishora qilmoqda.

Mifologik obrazlar barcha xalqlar adabiyoti, urf-odatlarini, madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, zaminida olamning sodda tasviri, ilk diniy qarashlar yotadi. Shu sabab mifologik obrazlar guruhida diniy siymolarni ifodalovchi misollar mavjud.

华封三祝 [huá fēng sān zhù] uch ne‘matni tilash (Xua qo‘riqchisining uchta tilaklari: uzoq umr ko‘rish, boylik va ko‘p o‘g‘il farzandlar; “庄子·天地 Zhuāngzi·tiāndì”ga ko‘ra bunday uchta ne‘matni imperator Yaoga Xua yerining chegaralarini qo‘riqlagan odam tilagan) Qadimgi Xitoy adabiyoti na‘munalaridan biri 《庄子·天地》 ga ko‘ra, chegaralarni qo‘riqlovchi Huafeng xalqi imperatorga uchta tilak, ya‘ni uzoq umr ko‘rishni, boylik va ko‘p o‘g‘il farzandlar tilagan. Keyingi avlodlar esa ushbu uchta ne‘matni tilash uchun “Huafengning uchta tilaklari” dan foydalangan. Asos domen 华封 iyeroglifi bo‘lib, aynan uning tilaklariga ishora qilmoqda. Ko‘pgina tabriknomalarda metafora sifatida uchta ne‘matni uchta gul: nandina, za‘faron va pion gullari ifodalagan. Mazkur frazeologik birlikdan ko‘rinib

turibdiki, boshqa sharq xalqlari singari Xitoyda ham qadimda o'g'il farzandlik bo'lish baxt hisoblangan va turli tabrik so'zlar, frazeologik birliklar buning yorqin isbotidir.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy xitoy lisoniy tafakkurida “五福 [wǔfú] baxt” modeli talqini**” deb nomlangan uchinchi bobida sotsiolingvistikaning metodlaridan biri anketa so'rovnomasi, uning tuzilishi, so'rovnoma o'tkazish jarayoni va “五福 [wǔfú] baxt” modelining zamonaviy ko'rinishi aks etgan so'rovnoma natijalari keltirilgan. Frazeologik birliklar orqali xalqning boy kumulyativ tajribasi yoritilgan. Baxtni xitoyliklar qanday qabul qilishini o'rganish tilning hozirgi holatiga baho berishda muhim hisoblanadi. Bu haqida S.G.Vorkachyov shunday izohlaydi: “Baxt” konseptining nominativ maydoni ham statik, ham dinamik komponentlarga ega, ma'lum joy va vaqtda ularning nisbati bir xil nomdagi tushunchalarda farq qiladi. Bu milliylik, individuallik va badiiylikda yaqqol ko'rinadi, chunki, “baxt” konsepti o'ta gibril, o'zgaruvchidir, u insonning “narsa-hodisa” va “ruhiy holati” haqida ma'lumot berib, “ichki” va “tashqi olamlarini”, mikrokosmos va makrokosmosni bog'laydi”³⁴. Tildagi leksika va ular tag zamiridagi ma'nolar orasidagi bog'lanish kognitiv tilshunoslik o'rganadigan muammolaridan biridir. Aynan so'rovnoma asosida o'z ona tilida so'zlashuvchilar, ya'ni xitoyliklardan, baxt haqidagi qarashlarni, frazeologik birliklardagi reprezentatsiyani chuqurroq o'rganish mumkin. Anketalar bilan ishlash jarayonida 100 ta respondent qatnashdi. Tadqiqot 2023-yil 3-fevraldan 7-martgacha bo'lgan oraliq davrda internet tarmoqlari (we chat 微信[wēixìn]) orqali amalga oshirildi. So'rovnomada ishtirok etgan har bir respondentning jinsi, yoshi, turmush tarzi, ijtimoiy sharoiti, ish joyi, oilaviy sharoitidan kelib chiqqan holda natija tarzida aniqlandi. Umumiy oltita guruhga ajratilib, jins kategoriyasi asosida erkak va ayol ikki katta guruh tuzildi. Natijada, jami o'n ikki xil model aniqlandi. Ishning yakunida umumiy model keltirildi. Tajriba jarayonida olingan javoblar ko'p va xilma-xildir. Ba'zi respondentlar bir misol bilan cheklanmay, ikki yoki hatto uchta misol keltirgan. So'rovnomada respondentlarga birlamchi baxt komponentini tanlash uchun manba asosidagi va Min sulolasi (1368-1644) davriga oid modeldagi beshta 寿 [shòu] “uzoq umr”, 福[fú] “baxt” (farovonlik) va 禄[lù] “martaba” 喜[xǐ] “quvonch” 财[cái] “boylik” kabi iyerogliflar keltirilgan. Ayrim repondentlarning javoblarida manbada uchramaydigan misollar berilgan. Ular quyida alohida keltirib, tahlilga tortilgan. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir so'rovnomada sog'lik iyeroglifi mavjud, ya'ni aksariyat respondentlar uzoq umr komponenti o'rniga aynan 健康 [jiànkāng] sog'likni javob sifatida yozishgan. Anketa so'rovnomasi guruhiy tipga kirib, undagi savollar ochiq va yarim yopiq tipga mansub. Savollarni o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, ular ikkita guruhga ajratildi:

- birinchi guruh savollari matnli savol bo'lib, ular ochiq tipdagi savollarga oid;
- ikkinchi guruh savollar yarim yopiq tipga doir menyu savollaridir.

Anketa so'rovnomasidan ikkinchi guruh savollar, ya'ni yarim yopiq tipli menyu savolda repondentlar uchun oltita javob variantlari berildi.

Baxt modelini aniqlashda respondentlar anketa so'rovnomasi javob natijalari quyidagi guruhlariga ajratib olindi:

³⁴ Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа. – Краснодар: техн. ун-т Кубан. гос. ун-та, 2002. – С.92.

- jinsi, ya'ni erkak va ayol;
- yoshi jihatdan yoshlar (18-30 yosh) va o'rta yoshlilar (30-50 yosh);
- ijtimoiy holati, ya'ni ishchi-xodim yoki talaba;
- oilaviy sharoiti ya'ni oilali va turmush qurmagan.

Tahlillar jarayonida olti xil model ko'rinishi aniqlandi. Ushbu modellarni aniqlashda $P(A)=m:n$ (m-absolyut chastota, n-umumiy soni) formulasidan foydalanildi. Bunda javoblar hamda misollar soni asosiy ko'rsatkich emas, biroq aniq natija bo'lishi uchun erkak va ayol respondentlar soni teng miqdorda tanlab olindi. Quyida erkak respondentlarning umumiy soni ko'rsatilgan bo'lib, ular oltita guruhlariga ajratildi:

18-30 yoshdagilar - 33 nafar	30-50 yoshdagilar - 21 nafar
Oila qurmagan erkaklar - 34 nafar	Oila qurgan erkaklar - 20 nafar
Talaba erkaklar - 19 nafar	Ish joyiga ega - 35 nafar

